

HARBIY BO'L MAGAN FAVQULODDA VAZIYATLARDA BOSHQARUVNING IJTIMOIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Atamuratov Muxammed Tilewmuratovich

Hayot faoliyati o`quv markazi inspektori

Annotatsiya: Maqolada harbiy bo'l magan favqulodda vaziyatlarda boshqaruvning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari keltirilgan. Fuqarolar muhofazasi - umum davlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning mustaqil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etitilish yoritilgan.

Kalit so`zlar: favqulodda vaziyatlar, moddiy boyliklarini, texnikalar, inson, hayot, salomatilik.

Ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining mudofaa qudratiga ega Mudofaa siyosatini qay tarzda amalga oshirish imkoniyatlari o'sha davlatning qudratini belgilaydi. Chunki har bir davlat moddiy boyliklarini, texnikalarini, harbiy himoyalanishga molik bo'lgan inshootlarini, xalqini himoya qilishda, saqlashda yangi turdag'i omilni yaratadi va ishlab chiqaradi. Shu tariqa davlatlar ichida yangi yangi qurollar yaratiladiki, bular nafaqat insoniyatga, balki butun jonli tabiatga, atrof-muhitga juda katta ziyon yetkazadi [1].

1990-yilgacha biz dunyoni ikki tizimga (kapitalistik va sotsialistik.) bo'lib kelgan edik va har ikkalasida ham umumiyligini qirg'in qurollari yaratilganligini yaxshi bilamiz. Bunday qurollarni ba'zi birlari ayrim davlatlar tomonidan sinab ko'rildi va hozirgi kungacha ulaming asoratlari to'g'risida eshitib kelyapmiz. Masalan 1945-yilda Yaponianing Nagasaki va Xerosima shaharlariga AQSHning yadro qurol tashlandi. Keyinchalik Koreyaga, Vyetnamga turli xildagi napalmlar (dirildoq

holdagi yondiruvchi modda), oskolkali (parchali), yondiruvchan bombalar tashlandi. Yuqoridagi qurollar yer yuzida mavjud ekan albatta, har bir davlat bunday qurollardan saqlanish vositalarini izlaydi, omillarini ishlab chiqadi. Shuning uchun har bir davlatning mudofaa qudrati asosini fuqarolar muhofazasi tashkil etadi.

Fuqarolar muhofazasi - umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning mustaqil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, fuqarolar mudofaasi oldiga qo'yilgan yuqoridagi ishlar 1945-yildan to 1990-yillargacha yetib keldi, lekin shu davrgacha yuqoridagi ishlami bajarish uchun ehtiyojlar bo'lmasdi. Afsuski, bu davrlarda (tinchlik davrlarida) tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariyalari, turli xil halokatlar yuz beradiki, xalqirniz, iqtisodiyotimiz bundan jiddiy zararlanadi.

Bunday holatlarda biz bir-birimizga yordam berishga tayyor emas edik. Mustaqillik davridagina favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasi tomonidan yetarli ijobjiy ishlar qilina boshlandi. Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolami va hududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi avariyalardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalaml hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991-yilda fuqaro mudofaasi tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirildi.

Yangidan tashkil etilgan ushbu tizim O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi fuqaro mudofaasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi sifatida tinchlik davrlardagi tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish falokatlari va halokatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish vazifalarini bajaradi.

O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza etishning qonun bilan belgilangan asosiy tamoyillari: insonparvarlik, inson hayoti va sog'lig'ining ustuvorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilish choralarining ko'rlishidir.

Shunday qilib, fuqarolar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqarolarni qanday xatti-harakat qilishi, ularga qanday chora-tadbirlar bilan yordam berishi, shikastlangan

hududlarda qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarim bajaradi [2]. Zero, yer yuzida urnurniy qirg'in qurollari, hujumkor qurollaming zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlami bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning har bir hududida va bo'g'inida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladl va uning vazifalari aniq belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darshkl I Nigmatov, M.ToJiyev. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazlrhgl - T. «IQTISODMOLIYA», 2011, -260 bet.
- 2.** Rahmonov I, Vahobov U, Yoqubov H "Favqulodda holatlarda shikastlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsansh", T: "FAN", 2004.
- 3.** Tojiev M, Nigmatov I, Ilxomov M. "Favqulodda vazlyatlar va fuqaro muhofazasi". O'quv qo'llanma. T, 2002.